

## **O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasidan tranzit tarzida olib o‘tish**

1. O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar tranzit tarzida O‘zbekiston Respublikasi hududidan yopiq yoki izotermik, tashishga yaroqli va plombalangan vagonlarda, avtofurgonlarda, avtorefrerator yoki konteynerlarda Bojxona tranzit rejimi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq hamda o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni ochmasdan transport birligiga dalolatnoma berilganligi uchun eng kam oylik ish haqining yigirma besh foizi miqdorida to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng olib o‘tiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasidan tranzit tarzda olib o‘tiladigan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar nazoratdan o‘tkaziladi.

3. O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasidan tranzit tarzida olib o‘tish:

o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning tovar partiyalari Inspektsiya tomonidan tranzit uchun beriladigan karantin ruxsatnomalarida belgilanadigan shartlar asosida (tranzit yukga ilova qilingan eksport qiluvchi mamlakatning fitosanitar sertifikatini yoki guvohnomasi bo‘lishi lozim);

pochta orqali, yo‘lovchilarning qo‘l yukida bo‘lgan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar o‘simliklar karantini bo‘yicha chegara maskanidagi o‘simliklar karantini davlat inspektori tomonidan nazoratdan o‘tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.